(2). Арютюнова Н.Д. Язык и мир человека. М., "Языки русской культуры", 1999.
(3). Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., "Советская энциклопедия", 1966.
(4). Бондарко А.В. Функциональная грамматика. Л., "Наука", 1984.
(5). Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. М., "Наука", 1985.
(6). Ивин А.А. Основания логики оценок. М., изд-во МГУ, 1970.
(7). Шаховский В.И. Категоризация эмоций в лексико-семантической системе языка. Воронеж, 1987.

Axrarova Shoira Batirovna (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi)

PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKADA FIDOIYLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada psixologiya va pedagogika fanlari doirasida fidoyilik sifatini rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Fidoyilik shaxsning jamiyat, Vatan va insoniyat manfaatlari yo'lida ongli ravishda xizmat qilishga tayyorligi sifatida talqin etilib, uning psixologik asoslari – altruizm, empatiya va ijtimoiy mas'uliyat tushunchalari bilan bog'liq holda yoritiladi.*

Kalit so'zlar*: fidoyilik, altruizm, empatiya, o'smirlik davri, ijtimoiy mas'uliyat, pozitiv, ijobiy psixologiya.*

Ахарова Шоира Батыровна (самостоятельный соискатель Национального института педагогики воспитания имени Кори Ниязи)

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ КАЧЕСТВА САМООТВЕРЖЕННОСТИ В ПСИХОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ

Аннотация. *В данной статье в рамках психологии и педагогики с научно-теоретической и практической точки зрения анализируются вопросы развития качества самоотверженности. Самоотверженность трактуется как готовность личности сознательно служить интересам общества, Родины и человечества и раскрывается во взаимосвязи с такими психологическими понятиями, как альтруизм, эмпатия и социальная ответственность.*

Ключевые слова*: самоотверженность, альтруизм, эмпатия, подростковый возраст, социальная ответственность, позитивная психология.*

Akhrarova Shoira Batirovna (Independent researcher at the National Institute of Educational Pedagogy named after Qori Niyazi)

ISSUES OF DEVELOPING THE QUALITY OF DEVOTION IN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY

Annotation. *In this article, the issues of developing the quality of devotion are analyzed from scientific-theoretical and practical perspectives within the fields of psychology and pedagogy. Devotion is interpreted as a person's readiness to consciously serve the interests of society, the Motherland, and humanity, and is explained in close connection with psychological concepts such as altruism, empathy, and social responsibility.*

Keywords*: selflessness, altruism, empathy, adolescence, social responsibility, positive, positive psychology.*

Kirish. O'smir yoshdagi shaxslarda o'zini-o'zi anglash masalasi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda eng ko'p muhokama qilinayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu masala jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan bolalik va o'smirlik davrlarida shaxsning asosiy psixologik va axloqiy poydevori shakllanadi. Bu bosqichlarda insonning qadriyatlar tizimi, axloqiy me'yorlarga munosabati, jamiyatdagi o'rni va hayotiy maqsadlari asta-sekin ongli ravishda anglab boriladi [6;45-47-b.].

Psixologik ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlik davri shaxsning o'zini, "meni"ni anglash, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishga intilish, shuningdek, jamiyatda o'z mavqeyini topishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadigan muhim bosqichdir. Bu davrda o'smirlar o'zini boshqalardan farqlashini, shaxs sifatida tan olinishini va hurmat qilinishini istaydilar. Shu sababli ularda ijtimoiy faollik, mas'uliyat, tashabbuskorlik kabi sifatlarni rivojlantirish muhim pedagogik va psixologik vazifalardan biri hisoblanadi [9;78–80-b.].

Ayniqsa, fidoyilik kabi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatlarni o'smirlik davrida shakllantirish alohida e'tiborni talab etadi. Fidoyilik shaxsning jamiyat, Vatan, oila va insoniyat manfaatlari yo'lida ongli ravishda xizmat qilishga tayyorligi, boshqalar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ya bilishi bilan tavsiflanadi. Bu sifatning shakllanishi empatiya, mehr-shafqat, hamkorlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi psixologik omillar bilan bevosita bog'liqdir [5;101–103-b.].

Inson xulq-atvorida fidoyilik va o'zini anglash sifatlarini rivojlantirish muammosi falsafa va axloqshunoslik, sotsiologiya hamda eksperimental psixologiya doirasida keng o'rganib kelinmoqda. Tadqiqotlar-

da shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’siri, oila, maktab va tengdoshlar jamoasining tarbiyaviy roli alohida ta’kidlanadi. Aynan shu muhitlar orqali o‘smirda ijobiy xulq-atvor me’yorlari, jamiyatga foydali bo‘lish istagi va fidoyilikka intilish shakllanadi. Shu sababli shaxsiy rivojlanish, o‘zini anglash va fidoyilik sifatlarini uyg‘un holda rivojlantirish jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim omil sifatida qaraladi [10;12–13-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqot davomida o‘smir yoshdagi shaxs rivojlanishi va fidoyilik sifatining shakllanishi va uning rivojlanishiga doir ilmiy qarashlar tahlil qilindi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda ushbu muammo turli omillar va uslublar orqali yoritilgan [5;55–57-b.].

L.S.Vigotskiy o‘smirlik davrini shaxsning ijtimoiylashuvi va “Men” konsepsiyasining shakllanish bosqichi sifatida baholadi. Bu davrda shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar uyg‘unlashuvi namoyon bo‘lishini ta’kidlagan. D.B.Elkonin o‘smirlikni ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘z o‘rnini topish davri deb baholaydi. A.V.Petrovsky shaxs rivojida jamoa va ijtimoiy muhit yetakchi o‘rinni egalashi haqida o‘z tadqiqotlari orqali isbotlaydi. E.Fromm altruizm va fidoyilikni insonning ma’naviy ehtiyoji sifatida ko‘rsatib, boshqalarga mehribonlik qilish orqali inson o‘z mohiyatini ro‘yobga chiqarishini asoslaydi. Maslou va Seligman pozitiv psixologiya doirasida shaxsning ijobiy sifatlari, jumladan, rahmdillik, mas’uliyat va fidoyilikning ichki ehtiyoj sifatida shakllanishini ta’kidlaydilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tadqiqot metodologiyasi aralash (mixed-methods) yondashuv asosida tashkil etildi. Bunda nazariy tahlil natijalari empirik ma’lumotlar bilan uyg‘unlashtirilib, o‘smirlarda fidoyilik sifatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar hamda ularni pedagogik jarayonda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari kompleks o‘rganildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

•ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;

•qiyosiy-taqqoslash metodi;

•kuzatish;

•suhbat va so‘rovnoma;

•pedagogik tajriba.

Tadqiqot diagnostik, formativ, nazorat bosqichlaridan iborat bo‘lgan tajriba-sinov modeli qo‘llandi. Diagnostik bosqichda (test) o‘smirlarning ijtimoiy-emotsional ko‘rsatkichlari va fidoyilikka moyilligi aniqlandi, formativ bosqichda (8–10 hafta) eksperimental guruhda tarbiyaviy mashg‘ulotlar va amaliy topshiriq-lar orqali fidoyilikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Yakuniy bosqichda (test) o‘z-garishlar qayta baholandi.

Tadqiqotda umumta’lim maktabining 14–15 yoshli o‘quvchilari tanlab olindi. Tanlanma ikki guruhdan tashkil topdi: eksperimental guruh (EG) – 32 nafar, nazorat guruhi (NG) – 30 nafar o‘quvchi. Guruhlar yoshi, sinfi va umumiy o‘quv sharoiti bo‘yicha maksimal darajada bir xil sharoitda tanlandi.

Diagnostik vositalar:

- Likert shkalasi (1–5) asosidagi so‘rovnoma;
- pedagogik-psixologik kuzatuv varaqasi (haftalik monitoring);
- yarim strukturalangan suhbat;
- o‘quvchi portfeli (refleksiya yozuvlari, amaliy topshiriqlar natijalari).

So‘rovnoma bandlari fidoyilikning tarkibiy ko‘rsatkichlari (empatiya, yordamga tayyorlik, jamoaviy mas’uliyat, ijtimoiy faollik) hamda ijobiy fikrlash elementlari (optimistik munosabat, “muammo–yechim” tafakkuri, o‘zini boshqarish) asosida tuzildi.

Ma’lumotlarni qayta ishlashda natijalar tavsifiy statistika (foiz, o‘rtacha qiymat) orqali tahlil qilindi. Tadqiqot ixtiyoriylik prinsipi asosida olib borildi. O‘quvchilar va ularning ota-onalariga tadqiqot maqsadi tushuntirildi, anonimlik va ma’lumotlarning maxfiyligi kafolatlandi, o‘quvchilar salomatligiga va psixologik farovonligiga zarar yetkazmaydigan topshiriqlar tanlandi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot aralash (nazariy va amaliy) uslubda olib borildi. Avvalo, muammo yuzasidan mavjud ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar, maqolalar va psixologik konsepsiyalar tahlil qilindi. Nazariy bosqichda fidoyilik, altruizm, empatiya va shaxs rivoji tushunchalari aniqlashtirildi. Psixologlar (Vigotskiy, Elkonin, Petrovsky) ta’kidlaganidek, o‘smirlik shaxsiy o‘zlikni shakllantirish bosqichi bo‘lib, bunda shaxs o‘zini jamiyat a’zosi sifatida anglay boshlaydi. Aynan shu jarayonda shaxsiy manfaat bilan ijtimoiy manfaat o‘rtasidagi munosabat shakllanadi. Bu munosabatlarning ijobiy shakllanishi mexanizmi oila muhitiga bog‘liqdir. Oila ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyani uzluksizligini ta’minlaydigan, kelajak nasl qanday bo‘lib ulg‘ayishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadigan ijtimoiy makon va psixologik omil vazifasini bajaradi. Oila bu vatanparvarlik, fidoyilik, o‘zaro hurmat, birdamlik, mehribonlikning emotsional manbaidir [5;60–62-b.].

O‘smirlik davri biologik, ijtimoiy va psixologik o‘zgarishlar bilan kechadi. O‘smirlik davri taxminan 10–15 (ba’zan 16–17) yosh oralig‘ini qamrab olib, shaxs rivojlanishining eng murakkab va o‘zgaruvchan bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrdagi rivojlanayotgan shaxsda hissiy beqarorlik kuchayadi, o‘zini anglash jarayoni faollashadi, tengdoshlar fikriga bog‘liqlik ortadi, mustaqil qaror qabul qilishga intilish kuchayadi. Shu bilan birga, “Men kimman?”, “Jamiyatda mening o‘rnim qanday?”, “Boshqalardan nimam bilan farq qilaman?” kabi savollarga javob izlash jarayoni boshlanadi. Bu jarayonda o‘smir ijobiy baholansa, o’ziga ishonchi ortadi va ijobiy shaxsiy sifatlar tezroq shakllanadi. Shuning uchun o‘smirlik davrida tushunish, sabr, qo‘llab-quvvatlash muhim tarbiyaviy omillardandir. Buning natijasida o‘smirning ichki dunyosida xavfsizlik va ishonch muhiti yaraladi, shaxsiy qadr-qimmat hisi uyg‘onadi, bular esa ijtimoiy moslashuv, fidoyilik va mas’uliyat kabi sifatlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi [9;82–85-b.].

Psixologiyada fidoyilik empatiya, alturizm va ijtimoiy mas’uliyat atamalari bilan bog‘liq holda izohlanadi. Empatiya–boshqaning holatini his qila olish qobiliyati. Altruizm–boshqalarga foyda keltirishni ko‘zlagan ongli xatti-harakat. Ijtimoiy mas’uliyat – jamiyat oldidagi burchni bilish. “Alturizm boshqalarga muhabbat va g‘amxo‘rlik” (E.Fromm). Alturizm–bu g‘amxo‘rlik (boshqalar taqdiriga befarq bo‘lmaslik), mas’uliyat (yordam berishga tayyor bo‘lish), hurmat (boshqalarni qadrlash), bilish (boshqalarni tushunishga harakat qilish). Alturizm orqali inson o‘z insoniy mohiyatini amalga oshiradi va boshqalar tufayli o‘zini to‘liq ro‘yobga chiqaradi.

Fidoyilik shaxsning ichki motivatsiyasiga tayanadi. Shuning uchun o‘smir yoshdagi shaxslar fidoyi bo‘lishi uchun boshqalarning ehtiyojini tushuna bilishi, o‘zini jamiyatning bir bo‘lagi sifatida his qila olishi, foydali bo‘lishdan ichki qoniqish olishi zarurligi kata ahamiyatga ega [6;120–121-b.].

O‘smirlarda fidoyilikni shakllantirishga ta‘sir etuvchi psixologik omillar sifatiga quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin:

•o‘zini anglash jarayonida o‘smir yoshdagi shaxs kim ekanini va atrofidagi jamiyatda egallagan o‘rni qanday ekanligini tushunishga harakat qiladi. Agar tarbiya jarayonida pozitiv fikrlar orqali “Jamiyatga kerakli va foydali bo‘lish” g‘oyasi tushuntirilsa, unda bu qarash fidoyilik yo‘nalishida shakllanadi [6;90–91-b.];

•hissiy rivojlanishda o‘smir yoshdagi shaxs hissiyotga boy va ta’sirchan bo‘ladi. Mehribonlik, qo‘llab-quvvatlash va positiv munosabat empatiya va rahmdillikni kuchaytiradi. Buning natijasida fidoyilikning psixoligik poydevorini yaratish mumkin;

•namuna bo‘lishda o‘smirlar o‘zlaridan katta yoshdagi kishilarning va tengdoshlarining xulqini tez ko‘chiradilar. Agar ularni o‘rab turgan jamiyatda mas’uliyatli, fidoyi insonlar bo‘lsa, bu sifatlar ularda tez shakllanadi;

•jamoada hamjihatlikda o‘smirlar sport, sinf, sport jamoasi kabi ijtimoiy guruhlarda bo‘lishi “biz” tushunchasini namoyon qiladi. Bu tushuncha shaxsiy manfaatdan ko‘ra jamoa manfaatini ustunroq qo‘yish uchun xizmat qiladi [5;115–116-b.].

Agar o‘smir yoshdagi shaxs dunyoqarashi rivojlangan bo‘lsa (bunda kitobxonlik ko‘nikmasi shakllangan), unda fidoyilik sifatini rivojlantirish osonroq kechadi. Buning sababi u o‘zini anglagan, ijtimoiy o‘rnini tushungan, maqsadlari aniq belgilangan bo‘ladi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, o‘smirlarda fidoyilik darajasi ularning oila muhiti [7;18–19-b.].

O‘qituvchi munosabati tengdoshlar guruhi bilan bevosita bog‘liq ekan. Agar tashqi muhit ijobiy munosabat bildirsa va qo‘llab-quvvatlasa, unda o‘smirda empatiya kuchliroq shakllanadi, boshqalarga yordam berish istagi ortadi, mas’uliyat hissi barqarorlashadi. Tadqiqot davomida o‘smirlarning katta qismi jamoaviy faoliyatda faol bo‘lganliklari, ijtimoiy ishlarga jalb qilinganliklari natijasida fidoyilik sifatlari ko‘proq namoyon bo‘lgan [5;140–142-b.].

So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlarning, taxminan, 60–70 foizi boshqalarga yordam berishni ijobiy baholaydi, 40 foizga yaqin o‘smir esa ijtimoiy tadbirlarda qatnashish, o‘zini namoyon qilish imkoniyati deb biladi.

Xulosa va takliflar. Shaxs rivojlanishida o‘smirlik eng muhim va mas’uliyatli bosqichlardan biri bo‘lib, aynan shu davrda fidoyilik, mas’uliyat, vatanparvarlik, mehribonlik, hamdardlik va kabi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun optimal va ta’sirchan psixologik sharoit yuzaga keladi. Bu davrda o‘smirning oiladagi mavqeyi, ota-ona va yaqinlari bilan munosabatlari, hissiy barqarorligi, o‘zini anglash jarayonining faollashuvi, kattalarga taqlid qilishi va ijobiy namuna izlashga intilishi, shuningdek, tengdoshlar jamoasidagi o‘rni va hamjihatlik darajasi unda fidoyilik sifatining barqarorlanishuvi va shakllanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi [9;90–92-b.].

Ilmiy qarashlarga tayangan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, fidoyilik empatiya, altruizm, ijtimoiy mas’uliyat, mehr-shafqat va hamkorlik kabi psixologik sifatlar asosida shakllanadi hamda shaxsning barkamol, ijtimoiy faol, tashabbuskor va ma’naviy yetuk bo‘lib kamol topishiga xizmat qiladi. Shu

sababli o‘smirlik davrida ushbu sifatlarni maqsadli ravishda rivojlantirish nafaqat tarbiyaviy, balki muhim psixologik vazifa sifatida ham qaraladi [6;132–134-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ -406-qonuni.

(2). O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi 637-qonuni.

(3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3907-farmoni.

(4). Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2018.

(5). Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Shirinov M.K., Hafizov S. Umumiy pedagogika. Darslik, Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2018.

(6). G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2002.

(7). Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. Toshkent, “Fan”, 2003.

(8). Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. Toshkent, “Sharq”, 2000.

(9). Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlar va pedagogik psixologiya. Toshkent, TDPU, 2009.

(10). Slobodchikov V. Новое образование–путь к новому сообществу. “Народное образование”, 2009, № 5.

Бекманова Жамиля (доктор философии педагогических наук PhD, кафедра “Дошкольного воспитания и дефектологии”, факультет Дошкольного образования НГПИ им.Ажинияза)

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ЛОГОПЕДОВ НА ЗАНЯТИЯХ ПО ЛОГОРИТМИКЕ

Аннотация. *В статье рассматриваются современные подходы к совершенствованию профессиональной подготовки будущих логопедов посредством внедрения инновационных технологий на занятиях по логоритмике. Анализируются традиционные и современные методы обучения, выявляются проблемы существующей системы подготовки специалистов. Предложены комплексные технологии, включающие интерактивные методы, цифровые инструменты, проектную деятельность и практико-ориентированные подходы. Обоснована необходимость интеграции теоретических знаний с практическими навыками через использование мультимедийных технологий, моделирования профессиональных ситуаций и междисциплинарного взаимодействия. Результаты исследования показывают повышение качества профессиональной подготовки будущих логопедов при применении предложенных технологий.*

Ключевые слова: *логоритмика, подготовка логопедов, образовательные технологии, профессиональные компетенции, инновационные методы обучения, речевая терапия, коррекционная педагогика.*

Bekmanova Jamilya (pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), “Maktabgacha tarbiya va defektologiya” kafedrasi, Maktabgacha ta’lim fakulteti, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti)

LOGORITMIKA MASHG‘ULOTLARIDA BO‘LAJAK LOGOPEDLARNI TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak logopedlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari logoritmika mashg‘ulotlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ko‘rib chiqiladi. An’anaviy va zamonaviy o‘qitish usullari tahlil qilinadi, mutaxassislar tayyorlashning mavjud tizimidagi muammolar aniqlanadi. Interfaol usullar, raqamli vositalar, loyiha faoliyati va amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvlarni o‘z ichiga olgan kompleks texnologiyalar taklif etiladi. Nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish zarurligi multimedia texnologiyalaridan foydalanish, kasbiy vaziyatlarni modellashtirish va fanlararo hamkorlik orqali asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari taklif etilgan texnologiyalarni qo‘llash bo‘lajak logopedlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *logoritmika, logopedlarni tayyorlash, ta’lim texnologiyalari, kasbiy kompetensiyalar, innovatsion o‘qitish usullari, nutq terapiyasi, korrektsion pedagogika.*

Bekmanova Jamilya (PhD in Pedagogical Sciences, Department of Preschool Education and Defectology, Faculty of Preschool Education, Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute)

IMPROVEMENT OF TRAINING TECHNOLOGIES FOR FUTURE SPEECH THERAPISTS IN LOGORHYTHMICS CLASSES

Annotation. *The article examines modern approaches to improving the professional training of future speech therapists through the introduction of innovative technologies in logorhythmics classes.*